

TO'Y MAROSIMLARI FOLKLORINI INGLIZCHA TARJIMALARINI QIYOSIY O'RGANISHDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNING NAMOYON BO'LISHI**ПРОЯВЛЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В СРАВНИТЕЛЬНОМ ИССЛЕДОВАНИИ АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ СВАДЕБНОГО ОБРЯДОВОГО ФОЛЬКЛОРА****THE MANIFESTATION OF NATIONAL AND CULTURAL PECULIARITIES IN A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH TRANSLATIONS OF WEDDING RITUAL FOLKLORE****Namozova Kamola Bobir qizi¹**¹Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Maqolada o'zbek milliy to'y marosimlari ularning oziga xos jihatlari, to'y folklorlari matnlarining inglizcha tarjimalari va ularni qiyosiy o'rganish asosida muhim milliy madaniy xususiyatlarining namoyon bo'lishi tahlil etilgan. Ingliz va o'zbek tilidagi tarjimalari taqqoslanib manbalar, ilmiy adabiyotlar, tahlillari berilgan.

Аннотация

В статье анализируются особенности узбекских национальных свадебных обрядов, проявление важных национальных культурных особенностей на основе английских переводов текстов свадебного фольклора и их сравнительного изучения. Даны источники, научная литература, анализ исследований с сопоставлением переводов на английский и узбекский языки.

Abstract

The article analyzes the features of Uzbek national wedding ceremonies, the manifestation of important national cultural characteristics based on English translations of wedding folklore texts and their comparative study. Sources, scientific literature, research analysis with a comparison of translations into English and Uzbek languages are given.

Kalit so'zlar: to'y, marosim, urf-odat, kelin, kuyov, sovchi, sunnat to'yi, nikoh, osh, kabob, beshik, belanchak, taomil, an'ana, sarpo, Alla.

Ключевые слова: свадьба, церемония, традиция, невеста, жених, жених, обрезание, свадьба, суп, кебаб, колыбель, качели, тамиль, традиция, sarpo, колыбельная.

Key words: wedding, ceremony, tradition, bride, groom, groom, circumcision, wedding, soup, kebab, cradle, swing, there or, tradition, sarpo, lullaby.

KIRISH

O'zbek to'y marosimlari xilma-xil shakllarda makon va zamonda bi-biridan farqli ravishda amalga oshiriladi. Biroq ularning har bir bosqichda o'ziga xos atamalardan foydalana olish imkoniyatining muhimligi, shuningdek, to'y marosimlarining qanday an'analar, urf - odatlar bilan uyg'un o'tishi, qolaversa, ularning tarjima jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan o'ziga xos muammolari ishining ushbu faslida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'zbeklarga xos bo'lgan beshik to'y marosimi bola dunyoga kelgandan keyin o'tkaziladigan o'ziga xos marosim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

M.Pitersenning "Traditions of the Cradle Ceremony" nomli maxsus bo'limida o'zbek xalq beshik to'yi marosimi haqida shunday etnografik matn keltirilgan: *"The cradle celebration is one of the most famous customs in Uzbekistan, after a child is born. The size of the celebration will vary according to the means of the family. In rich homes they will cook osh for many people, neighbors, and friends. In poor families they do this only for relatives and close friends"* [1.120]. Ushbu matnda o'zbek oilalarida beshik to'yi o'tkazish odat tusiga kirgani hamda marosimning o'tkazilishi oilaning moddiy ahvoriga qarab belgilanganligi qayd etilgan. Matnda o'zbek milliy taomining nomi "osh" so'zi tilga olib o'tilgan. Darhaqiqat, aksariyat o'zbek marosimlarida bo'lgani kabi beshik to'yida ham milliy taom sifatida osh pishiriladi va elga tortiladi. *"The cradle celebration is hosted by the mother's side of the family – the grandmother, grandfather, aunts, etc. All things that are needed in this celebration are prepared by them. The table will be laid with a cloth (dasturkhan*), on which they place sweets, fruit, and flat bread, which has been cooked in a tandir**"* [2.120]. Bu parchada beshik to'yiga kerakli, zarur narsalar bolaning ona avlodi tomonidan

TILSHUNOSLIK

tayyorlanishi, shirinliklar, meva va tandirda yopilgan non bilan dasturxon tuzatilishi ta'kidlangan. Shuningdek, bolaning ota-onasiga sarpo qilish, bolaga atab beshik sotib olish, katta-katta tog'oralarda somsalar va bola uchun o'yinchoqlar keltirish kabi o'zbek xalqiga xos xatti-harakatlar ko'rsatib o'tilgan. Keltirilgan izoh matnida "beshik"– "cradle" so'zi bilan, "beshik to'yi"–"the cradle celebration"so'z birikmasi kalkalash yo'li orqali ifodalangan, biroq bu usul o'zini oqlamagan, aniqrog'i, tarjima jarayonida marosim mohiyatini to'liq yoritib bera olmagan. Biroq lug'atda cradle – a small bed for a baby that you can rock [3.120] deya izohlanib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda bolani tebratib o'tiradigan kichkina yotish moslamasi (yoki krovat) ma'nosini beradi, bu o'zbek tilidagi tebratma belanchak – chaqaloqlarni yotqizib ovutiladigan yoki uxlatiladigan, arg'imchoqdek yoki beshikdek tebratiladigan moslama [4.81]so'ziga mos keladi. Beshik – chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tol yoki tut yog'ochidan yasalgan yo'rg'a oyoqli maxsus moslama. [5.246] Bu o'zbek kitobxoniga tushunarli, biroq cradle so'zining krovat ma'nosi ham borki, xorijliklar tasavvurida bolaga beshik emas, krovat keltiriladi, degan tushunchani hosil qiladi. Vaholanki, beshik va krovat boshqa – boshqa predmetlardir. Krovat o'zbek tilining izohli lug'atida *karavot– to'rt oyoqli, ustiga ko'rpa-tushak solinadigan yotoq moslamasi*.

Tarjimon beshik to'yining ziyofat dasturxonini ta'riflar ekan, "osh"–"osh", "dasturxon" – "dasturkhon" so'zlarini transkripsiya usulida aynan saqlab, dasturxon so'ziga "The tablecloth spread with many delicacies" deya izoh beradi. Yana tarjima matnida "tandir" va "sarpo" so'zlari transliteratsiya qilinib, ularga quyidagicha izoh berilgan: "tandir" – *an oven, the bread is placed on the clay wall over the wood fire*; "sarpo" – *clothing from head to toe*. Tarjimada etnografizmlarning saqlanishi hamda ularga izoh berilishi kitobxonda to'g'ri tushuncha hosil bo'lishiga ko'maklashadi. Ingliz tili izohli lug'atlarida tandirda pishiriladigan taomlarga shunday izoh berilgan: "Tandoori – a particular South Asian method of cooking food in a clay cooker".[6.32.] M.Pitersen qo'llagan "the clay wall" hamda lug'atda berilgan "a clay cooker" izohi tandir so'zining leksik lakuna ekanligini namoyon etadi, biroq mazkur so'zning ingliz tilida bitta so'z bilan beriladigan "tandoor"anologi mavjud. Shunday ekan, mazkur holatda tandir etnografizmini "tandir" deb transliteratsiya qilmasdan ingliz tili lug'atlarida berilgan "tandoor" ko'rinishida berish maqsadga muvofiq bo'lardi. Ushbu manbada "The Cradle Songs" degan maxsus bo'lim ham bor. Unda o'zbek onalari bolasini uxlatish uchun kuylaydigan xalq qo'shig'ining nomi hisoblangan "alla" so'zi etnografizm sifatida aynan saqlangan va "alla" – "a cradle song, lullaby" deya izohlangan. Ma'lumki, xalqimiz orasida beshik bilan bog'liq turkum qo'shiqlar mavjud. Alla shunday qo'shiqlarning asosiysi hisoblanadi. Negaki, alla bevosita bolaning beshikda orom olayotgan davrida kuylanadi. M.Pitersen bir turkum allalardan misol tanlab, o'z kitobiga kiritgan. Ular quyidagilar:

Asliyat:

Uch yoshingda to'ylar qilib beroyinoy, alla
Oshlar aylab elu-xalqni siyloyinoy, alla
O'n uch yoshda mo'ljal aylab allayo, alla
Boshginangga zarrin salla o'rayinoy, alla

Tarjima:

You'll have a tuy* when you are three, alla.

Let me cook osh, and share it with thee, alla.

We'll celebrate your Muljar when you're 13, allayo alla,

A golden turban on your head will be seen, alla

Bu qo'shiqlarning inglizcha tarjimasida "alla", "to'y", "osh", "muchal" etnografizmlari aynanligicha saqlab qolingani. Bundan tashqari, tarjimada "to'y" so'zining "tuy" ko'rinishida berilishi, "salla" so'zining inglizcha "turban" shaklida qo'llanilganligini ham ko'rish mumkin. Shu bilan birga, har bir misra so'ngidagi "alla" so'zi ham aynanligicha saqlangan. Bundan shu narsa aniqki, tarjimon xalqning etnosi bilan yaqindan tanishgan, shuning bilan birga uning bu harakatlaridan har qanday xalqning etnosiga befarq emasligi ham aniq ko'rinib turibdi.

M.Pitersen o'zbeklarning sunnat to'yiga izoh berishga o'rinib ko'radi va shunday yozadi: "tuy – the celebration of the circumcision. A child must be 3,5, or 7 years old". Darhaqiqat, bunday

marosimlar bolaning toq yoshida (3,5,7) amalga oshiriladi. To'y bolaga atab, sarpolar, ya'ni zarrin to'nlar, etiklar, sallalar tikiladi. Qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar taklif etilib, to'y qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy tahlil, matnlar ustida ishlash, analiz va sintez, izoh berish, tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Ta'kidlash kerakki, xalqimiz milliy turmush tarzigagina xos bo'lgan marosimlarni hamma vaqt ham tarjimada aynan berib bo'lmaydi. Shuning uchun tarjimonlar bunda ko'pincha izoh berish usulidan foydalanib, shu orqali o'sha narsa haqida xorijlik o'quvchida tasavvur uyg'otishga harakat qiladi. Tilshunoslikda izoh berish usuli bilan bog'liq ilmni realiya hodisasi deb ataymiz. Realiza-lotincha so'z bo'lib, bo'shliq, ya'ni to'ldirish lozim bo'lgan joy ma'nosini anglatadi.

Sunnat to'y marosimi. O'g'il bolaning qo'lini halollash uchun o'tkaziladigan to'y marosimi. Asosan bu to'y marosimi Islom diniga e'tiqod qiluvchi barcha musulmon xalqlar orasida mavjud. Biroq, izlanishlar shuni ko'rsatdiki, aynan o'zbekona sunnat to'ylari haqida ingliz tilshunosligida ham, uning tarjima materiallarida ham deyarli yo'qligiga guvoh bo'ldik. Biroq, nikoh to'yi haqidagi materiallar tarjima faoliyatida oz bo'lsa-da uchrab turadi (yuqoridagi kabi).

Folklorining kattagina qismini oilaviy-maishiy tadbirga taalluqli nikoh to'yi marosimi tashkil etadi. Sababi bu marosim orqali ijtimoiy hayotda, ya'ni jamiyatda insonning ko'pdan beri orziqib kutgan eng muhim hodisasi, aniqrog'i, oila degan bir muqaddas qo'rg'oni barpo bo'ladi va u rasman qayd etiladi. Shunga ko'ra, bu marosim o'ta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Uning vositasida oilaviy hayot boshlanadi. Oilaviy hayot qanday boshlansa, uning kelajagi ham shu zayilda davom etadi-degan gaplar ham bor (o'zbeklarda, albatta). Buni kimdir haqligiga ishonsa, kimdir irim-sirimga yoyadi. Oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham tinch bo'ladi-da. Demak, oilaning mustahkamligini ta'minlashda oilaviy-maishiy marosimlarning tarixan milliy an'analarga to'yinganligi bo'lsa, bundan tashqari, unga aloqador folklor asarlarining g'oyaviy ta'siri natijasi hamdir. **Birinchi bosqich** da kelin tanlash, unga sovchi yuborish, non sindirish, fотиha qilish kabi marosimlardan tashkil topadi. **Ikkinchi bosqichda** kelinni kuyovning uyiga olib kelish, nikohlash, to'y-tomosh, bazm kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqich eng namoyishkoronaligi bilan asosiy o'rinda turadi. **Uchinchi bosqichda** nikoh to'yidan so'ng o'tadigan: "yuz ochdi", "kelin salom", "kuyov chaqirdi" kabilardan iborat [7.127]. Nikoh to'yigacha tomonlar sovchilik munosabatini olib borishgan bo'lib, bu O'zbekistonning turli hududlarida etnomadaniy rang-baranglikni keltirib chiqargan. Masalan, sovchilikni "eshigingizni supurgani keldik", "qulchilikka keldik" "katta va kichik sovchilik" (Surxondaryo viloyatida) turlari mavjud. Nikohgacha bo'lgan udumlar, avvalo, kuyov tomon qiz tomonni tekishiradi, surishtiruv ishlari olib borib, keyin sovchi jo'natadi. Navbat qiz tomonga kelganda kuyov tomonning uy joyi nasl-nasabi va qalin berish sharoitini o'rganadi. Masalan, Xorazm viloyatida qiz chiqarishdan ko'ra kelin tushirish mushkulroq bo'lib, u yerda "sut puli", "qalin puli" deb ataluvchi nikoh oldi marosimlari bor.

Haqiqatdan ham nikoh to'y marosimi ham qiziqarli, ham o'z o'rnida hamisha shod-xurramlik, yoshlik, go'zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o'tkaziladigan ajoyib oilaviy bayramdir. G'oyat go'zal bo'lgan bu marosim aslida asrlar osha sinovdan o'tgan, mohiyatan chuqur o'ylangan, milliy asosda nishonlanadigan milliy tadbir hisoblansa-da, har bir davrda takomillashib, muttasil boyib kelgan. Albatta, ayrim etnik guruhlarga emas, hatto har bir qishloq, tuman yoki viloyat ham an'anaviy to'yning o'ziga xos elementlariga ega bo'lgan. Demak, o'zbek to'ylarining shakl va shamoyili deyarli hamma joyda bir xildir [8.219].

Mahallachilik an'analari qadimdan o'zbek xalqining ijtimoiy-maishiy turmushida muhim ahamiyat kasb etgan. Nikoh to'yi bilan bog'liq udumlarning birontasi ham mahallaning e'tibori va nazoratidan chetda qolmagan. Hozirgacha ular qadimgi qo'shnichilik jamoasi manfaati bilan uzviy bog'liq bo'libgina qolmay, oilaviy munosabatlarni va marosimlarni boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynab kelmoqda¹[9.218]. Nikoh to'yi millat va elatning o'ziga xosligini namoyon qiluvchi etnoestetik voqealardir. To'yda dam olish, taomlanish, o'z aqidalarini namoyon qilish singari mental xususiyatlar aks etadi.

Etnografik yo'nalishdagi tarjima matnlarida **beshikkerti** udumi haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Bunday etnografik ma'lumotnomalarda, avvalo, **beshikkerti** udumining bolalarning yoshlik chog'ida, ya'ni qizaloq qirq kunlik bo'lmasidan, uni o'zidan ikki-uch oy oldinroq yoki bir

¹ Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи. 1994. – Б. 218.

TILSHUNOSLIK

kunda dunyoga kelgan o'g'il bola chaqaloq bilan unashtirilishi, bunda ikki oilaning o'zaro rozirizoligi inobatga olinishi, bayram, hayit kunlarida, ayniqsa, muchal yoshida yigit tomon sovg'a-salomlar qilib, qizning uyiga tashrif buyurishi, shu o'rinda qiz tomon ham yigitga to'n, do'ppi, dastro'mol, xullas, boshdan-oyoq sarpo qilib yuborishi haqida xabar berilgan. Jumladan: *"On the day of the arrangement, a relative of the boy may bring fatir* and white material to the home of the girl. Then on every holiday or ceremony they bring gifts, especially on the day of Muljar*. Sometimes during the **circumcision** ceremony they dress both the little girl and the little boy. Before every Islamic holiday the boy's family brings the girl's family a **tray** with henna and usma*. The girl's mother may send a robe, skull cap and handkerchieves to the boy...They*

sing Muhamas*:

Let us make a *bistar*, the marriage bed.

In this place, on the day they are wed" [10.91].

Shu o'rinda muallif muxammas turkumiga kiruvchi qo'shiqlardan birining inglizcha tarjimasini amalga oshirar ekan, unda kelin-kuyovga atab tikiladigan to'shak, ya'ni "*bistar*" etnografizmini tilga oladi va bu so'zning ingliz tilida tarjima ekvivalenti yo'qligini inobatga olib, uni shu so'z o'rnida o'zi uchun tushunarli bo'lgan "*the marriage bed*" so'z birikmasi bilan ifodalaydi. Bu boshqalarga ham tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida she'riy matn tarkibida o'zbek tilining Buxoro shevasiga xos bo'lgan "*bistar*" so'zi uchun inglizcha "*the marriage bed*" so'z birikmasini izoh bo'lak sifatida yonma-yon keltiradi. Natijada ular she'r matni tarkibida biri-ikkinchisi uchun sintaktik jihatdan ajratilgan izoh bo'lak ko'rinishini olgan. Demak, etnografizmlar tarjimasini murakkab ishligini inobatga olib, tarjima ishida bunday imkoniyatdan foydalanish mumkin.

M.Pitersen xalqimizga oid so'z va tushunchalarni, ya'ni etnografizmlarni o'z ko'rinishida yozib, matn ostida izohlagan, biroq "*muchal*" so'zini "*Muljar*" tarzida tojikcha talaffuz variantida, "*muxammas*" so'zini esa "*Muhamas*" ko'rinishida bergan. Etnograf K.Shoniyo'zov qorluqlarning nikoh to'yi marosimi udumlari haqida to'xtalar ekan, u quyidagilarni ma'lum qiladi: Kelin bo'ladigan qiz tanlangandan keyin yigit tomonidan ikki ayol – kuyov bo'lgichning ammasi, xolasi yoki turmushga chiqqan opasi sovchilikka borishi mumkin ekanligini uqtiradi. M.Pitersenning sovchilar haqida to'xtalib, ularning vazifasi haqida quyidagilarni aytib o'tganligini ko'rib chiqamiz. "Sovchilar" etnografizmi ingliz tilida "*matchmaker*" deb berilib, so'ng "*duktarkov*", ya'ni "*duxtarkov*" – "*qiz qidiruvchilar*" deb tushuntirilgan. Sovchilar kelgan xonadonda qizning onasi ularni "Xush kelibsizlar!" deya ochiq chehra bilan kutib olishi, kelganlar oldiga dasturxon yoyishi, choy va eguliklar hozirlashi odat tusini olgan. Shunda gap orasida sovchilardan biri maqsadini ayon qilgan. Sovchilar vazifasini o'tagach, har ikki tomon rozi bo'lishganidan so'ng rasm-odat bo'yicha ikki tomon qudalar o'rtasida qanday udumlar amalga oshirilishi, qiz mahri uchun nimalar berilishi lozimligi, qiz qalini kabilar kelishib olingan. Shunday urf-odatlar qatorida dastlab kelin tomondan ayollar: qizning onasi va xolasi (yoxud ammasi) kuyov tomon bilan yaqindan tanishish maqsadida kuyov xonadoniga borishadi, uning oilaviy ahvolini o'rganishadi va bu marosim "*domotbini*" deb ataladi. Bunday tushuntirish kitobxonda Sharqda ham G'arbdagidek qiz-yigit bir-birlarining uylariga to'ydan ilgari ham borib turishar ekan, degan xulosa chiqarishga undaydi va pragmatik nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi. Hatto kelinning ota-onasi to'y marosimlari o'tgandan bir hafta keyingina qizlari tushgan xonadonga borishlari mumkin. Chunki qizning ota-onasi to'ydan oldin yigit uyiga tashrif buyurishi milliy odatimizga ko'ra uyat sanalgan. Bunday o'ziga xoslik faqat o'zbek xalqining mentalitetiga daxldordir.

Sovchilik, ya'ni unashtirish udumi anchadan beri xorijlik olimlar diqqat- e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Buning isboti sifatida ko'pgina etnografik matnlarning ingliz tiliga o'girilgani misolida dalillash mumkin. Jumladan, H.Vamberi, M.Pitersen, R.Abazov, M.E.Lo, D.Kandiyoti va N.Azimovalarning ishlari ana shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi. Unashtirish marosimi M.Pitersen kitobida inglizcha "*betrotal*", "*sweet eating*", ya'ni shirinlik yeyish marosimi (shirinixo'ri) deb, ushbu etnografizmnning bevosita sheva variantida berilgan.

M.Louw to'yga "*The household that is arranging a to'y usually invites their entire social network of relatives, friends, colleagues and neighbours, which means that several hundred guests will usually attend such an events. To'ys are important occasions for the exchange of gifts and favours*" [117] deb izoh berib, ushbu marosimning uzoq davom etishini ta'kidlaydi va sovchilikka borish qoidalarini quyidagicha izohlab o'tadi: "*Marriage negotiations can be a lengthy process. The*

initiative is taken by boy's family, who will send a party of (female) intermediaries to the potential kelin's (bride's) home to ask her parents for her hand. The matchmakers address the girl's mother and tell about the virtues of their son/brother/nephew" [12.75].

Keltirilgan misolda M.Louw ayol o'rtakash (sovchilar) kelining uyiga sovchi bo'lib borishlari, kelin bo'lmish qizning onasiga kuyovning yaxshi fazilatlarini maqtashlari, kelining onasi tomonidan sovchilarga to'g'ridan-to'g'ri rad javobini berishi hurmatsizlik belgisi ekanligi yoki darhol rozi bo'lishi ham odobdan emasligi, o'ylab ko'rish va turmush o'rtog'i bilan maslahatlashishi kerakligini bildirishini aytib o'tgan. Shuningdek, qizning onasi sovchilar keltirgan sovg'alarni qaytarishi yoki ushlab qolishidan uning rozi yo norozi ekanligini bilib olish mumkinligi borasida ma'lumot bergan.

Antropolog sovchi atamasini ingliz tilida *"intermediaries"* va *"matchmakers"* deb ikki xil ko'rinishda bergan. Kelin so'zini esa aynan o'zbek tilidagi nomlanishini saqlab, transliteratsiya usulidan foydalanadi va qavs ichida uning inglizcha *"bride"* tarjimasini beradi. Yana ushbu so'zning ma'nosini *"kelin in fact literally means 'incomer'"* deb izohlashga ham urinadi. Mazkur holatda P.Nyumark ta'kidlaganidek, mutarjimning ikki yoki undan ortiq tarjima usulini qo'shib ishlatgani [13.91] ayonlashadi. R.Abazovning kitobida qizning uyiga kelgan sovchilarga rozilik bildirishda kuyovning oilaviy sharoitiga ham ahamiyat berilishi haqida ma'lumot keltiriladi. Unda kuyovning oilaviy sharoiti ham inobatga olinishi, chunki ular kelin uchun qalin puli to'lashi lozimligi aytib o'tilgan: *"The position of the parents was especially important, as the family of the bridegroom was expected to pay the family of the bride a large dowry (kalym) in the form of money or gifts. The size of the kalym could vary from symbolic gifts to very substantial sums of money (sometimes up to three to five years' averagesalary)".* [14.225].

Ko'rinib turibdiki, *"qalin"* ingliz tilida *"dowry"* tarjimasida berilib, qavs ichida *"kalym"* tarzida ifodalangan va *"qalin"* sovg'alardan yoki katta mablag'dan, ya'ni 3-5 yillik maosh qiymatiga teng summadan iboratligi ta'kidlanmoqda. *"Dowry"* so'zi ingliz tili izohli lug'atida *"in some societies, an amount of money or property which a woman's parents give to the man she marries",* [15.91] ya'ni turmushga chiqayotgan qizning ota-onasi tomonidan kuyovga beriladigan ma'lum miqdordagi pul yoki mulk deya sharhlangan. Bizning xalqimiz orasida esa, aksincha, qalin kuyov tomondan kelin tomonga beriladi. Mazkur etnografizm D.Kandiyoti va N.Azimovalar tadqiqotida ham qo'llanilgan

bo'lib, u *"the payment of kalym (brideprice)[16.328]"*² tarzida keltirilgan. Qalin puli to'lash, ya'ni kelin uchun beriladigan pul deya izohlangan. H.Vamberinining kitobida qalin etnografizmiga shunday izoh beriladi: *"... kalim (marriage portion) which the man is ready or able to give for his future wife",* [17.98] ya'ni kuyovning bo'lajak turmush o'rtog'i uchun beradigan mablag'i yo mulki. Aslida o'zbek tilining izohli lug'atida *qalin* – nikoh to'yida kuyov tomonidan kelin tomonga beriladigan, to'lanadigan pul, mol va h.k. [18.228] deb ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, H.Vamberi, D.Kandiyoti va N.Azimovalar tadqiqotida *"qalin"* etnografizmi turlicha yozilgan bo'lsa-da, birmuncha yaqin izohlangan. H.Vamberinining kitobida ikkala tomon hamma narsaga kelishib olishganidan so'ng fotiha to'yi o'tkazilishi, fotiha to'yi va nikoh to'yining belgilanishi, to'ydan oldin kelining uyiga yuboriladigan to'ylik (yuk, masalliq) haqida ma'lumot keltirilgan. Ingliz tilida fotiha to'y va to'ylik quyidagicha ifodalangan: *"Finally, when every thing is definitely settled, neighbours and relations are invited to the fatiha toy (feast of promise), which is celebrated for two days in the home of the future bride... A week before the wedding, the toyluk (food for the wedding) is sent by the man to the house of his future wife; and consists of meat, flour, rice, fat, sugar and fruit."* [19.98]

M.Lo *"to'y"* so'zini *"a to'y"* tarzida o'g'irgan bo'lsa, R.Abazov ushbu so'zni quyidagicha izohlagan: *"Family celebrations – tois – are important events in the personal lives of all people of all ages in the region. People usually celebrate all such events, including marriages, the birth of a first child and a first grandchild, boys' circumcisions, and the building of a new home. The tois are usually quite large."* [20.242] Muallifning kitobidan olingan ushbu parchada *"to'y"* etnografizmining ingliz tilidagi tarjimasini o'rnida o'zbek tilidagi ko'rinishi kabi *"tois"* tarzida ifodalanganiki, bu etnografizmlarning morfologik o'zgarishlarga ham uchraganini namoyon etadi. Masalan: *"to'y"* ingliz tilida birlik sonda noaniq artikl bilan *"a to'y"* tarzida, ko'plik sonda *"tois"* ko'rinishida berilgan. L.S.Barxudarov fikriga tayangan holda, mazkur misolni fonemaga asoslangan tarjima deysish

² Kandiyoti D. and Azimova N. (2004) The communal and the sacred: women's worlds of ritual in Uzbekistan, Journal of the Royal Anthropological Institute. Vol.10, No.2 – pp.328.

TILSHUNOSLIK

mumkin, chunki tarjimon o'zbek tili fonemalariga mos keladigan ingliz tili fonemalarini tanlashga harakat qilgan. Biroq ushbu etnografizm ingliz tili lug'at tarkibiga kirib borishi barobarida o'zbek tilidagi ko'plik yasovchi qo'shimcha – **lar** ga mos tushadigan ingliz tilidagi - **s** ko'plik yasovchi qo'shimchani qabul qilgani morfema darajasidagi tarjimaga ham misol bo'la oladi.

Kitobda to'ylar, ya'ni oilaviy tantanalar inson hayotidagi muhim voqeadir va oila qurish, birinchi farzand tug'ilishi, o'g'il bolalarning xatna qilinishi, yangi uy qurilishi kabi vaziyatlarda o'tkazilishiga qarab farqlanadi, deya izohlanadi. R.Abazov o'zbek to'ylarini katta tantana qilib o'tkazilishi, 400 kishidan ortiq qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni taklif etilishi tabiiy hol ekanligini, shuningdek, barcha yaqin va uzoq qarindoshlar, qo'shnilar, hamkasblar, do'stlarning, begonalarning ham to'yga taklif etilishini ta'kidlaydi. Hattoki arazlashib qolganlar ham to'y bahona yarashib olishishlari borasida fikr bildiradi. Albatta, bu boshqa millat egalari uchun noodatiydir, biroq o'zbek millati uchun bu oddiy hol hisoblanadi. Ushbu izohdan o'zbek xalqiga xos mehmondo'stlik, bag'rikenglik, eng muhimi, bu xalqning tantiligi, uning milliy qadriyatlari nihoyatda boy ekanligini anglab olish qiyin emas.

M.Pitersen qarindoshlar o'rtasidagi (qarindoshlar deyilganda, bunda ikki ma'noni: kuyov-kelin sababli ularning oilalarini yaqinlashuvini hamda har qanday to'y qarindoshlar bilan o'tishi nazarda tutilmoqda) to'ylarni tushuntirar ekan, "*qarshiquda*" tushunchasini inglizchada emas, balki aslyatdagi ko'rinishida, ya'ni transkripsiya va transliteratsiya usullaridan foydalangan holda bergan. U bu turdagi to'ylar agar yaqin qarindoshlar orasida bo'ladigan bo'lsa, unda yaqin oilalar o'rtasida sovuqchilik tushishi va turli xil kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi haqida ham to'xtalib o'tadi. Bu uning o'zga bir millat madaniyatidan yaxshigina xabardor ekanligini anglatish bilan birga, shu xalqning milliy-madaniyatiga cheksiz hurmati hamdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman aytganda, tarjima matnlarida kelinning kuyovga unashtirilishi marosimi – "*Fotiya* (aslida Fotiha)", kelin sepini ko'tarib boradigan predmet– sovchilar – "*borkash*", to'yning mashhur taomlaridan biri bo'lgan kabob – "*kabob*", kelin va kuyovning o'rni to'shalgan joy – "*Chimildik*", qarshiquda – "*karshikuda*" nomlari ham aynan qo'llanganligi kuzatiladi.

Nikoh to'yi marosimi bilan bog'liq "**Oqlik**" deb ataluvchi yana bir kichik marosimimiz borki, u sovchilikning ijobiy yakunini belgilaydi. Bu marosim jarayonida qarindosh-urug', qo'ni- qo'shni va qudalar ishtirok etib, kelinga atab poklik ramzi sifatida oppoq matodan ko'ylak bichishadi hamda ushbu jarayonda o'ziga xos qo'shiqlar kuylashadi. Ana shunday qo'shiqlarning biriga M.Pitersen quyidagicha yondashadi:

While cutting the bride's dress

We bring her to the centre to bless
The groom respects the bride, so dear
And let the groom, the bride reverse [21.243]

Qo'shiq mazmunidan shuni anglash mumkinki, qarindosh-urug'lar kelinga ezgu tilaklar bildirishadi, maslahatlar berishadi, uning go'zalligini ta'rifu tavsif qilishadi. Tarjimonning qo'shiq mazmuni bilan birga uning qofiyasini ham saqlab qolishga uringani tahsinga loyiq Qo'shiq misralari a-a, b-b, s-s, d-d tarzida qofiyalangan.

Kelin ko'ylagini bichish marosimini o'tkazgach, kuyovning onasi keltirgan matodan mehmonlarga ulush tarqatiladi. Ta'kidlash kerakki, ulush xalqimiz orasida to'y tantanalarida, muchal to'yida, ya'ni 13 yoshga to'lganda tarqatilgan. Ulush, odatda, nonning ustida qo'yilgan turli xil shirinliklar, pishiriqlardan iborat bo'lgan. Qadimda ulush berilsa, xonadon xotirjam bo'ladi va har qanday ofatlardan saqlanadi, deb ishonilgan.[22.242]

M.Pitersen Buxoroga kelib, xalqimizning o'ziga xos urf-odat va marosimlarini qunt bilan o'rganar ekan, hududimizda ko'pdan buyon o'tkazilib kelinadigan yana bir an'anaviy to'y udumi "Hinobandon"ga ham diqqatini qaratadi. U hatto Buxoroda o'tkazilib kelinayotgan bu marosimda aynan ishtirok etib, u haqda ma'lumotlar to'plagan.

Ma'lumki, o'zbeklar orasida Ramazon va Qurbon hayiti bayramlari arafasida barcha yoshdagi xotin-qizlarning hamda nikoh to'yida turmushga uzatilayotgan qizning qo'l-oyoqlariga xina bog'lash odati mavjud. Ayniqsa, nikoh to'yida bu udum ritual xarakterda amalga oshiriladi. Hatto bunga ishora o'zbek shoiri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning "Kelinchak" haqidagi g'azali ham mavjud. Shoir kelinchak portretini yaratar ekan, uning "lolarang xina bog'langan qo'llariga" alohida e'tibor beradi. M.Pitersen o'z kitobining "To'y marosimlari" degan bo'limida

“Hinobandon” marosimi haqida alohida to‘xtalib, unda kelinning dugonalari, ayol qarindoshlari yig‘ilishib, kelinchakni bezantirishi, uning qosh-ko‘zlariga o’sma, qo‘llariga xina qo‘yib, yor-yorlar kuyushlari to‘g‘risida ma’lumotlar beradi va quyidagi aytim tarjimasini misol keltiradi:

Let’s put henna	We’ll put usma
In her palm.	On her brow.
If there is no henna,	If there is no usma,
Let’s put golden water for a balm.	Let’s put green grass for her vow.

We’ll put **surma**
Her eyes around.
If there is no surma,
Let black pencil there be found.[23.242-243]

“Hinobandon” marosimida ijro qilinadigan bu qo‘shiq tarjimasida “*xino (xna)*”, “*o’sma (usma shaklida)*”, “*surma*” singari kelinchakning pardozi buyumlari nomlari aynan saqlab qolingani. Tarjimon o‘smanni quyidagicha izohlaydi: “usma – the nectar of a green plant used to color the eyebrows”. Olimaning tarjimalarida muayyan so‘zlarning aynan saqlanishi, ya’ni transliteratsiya usulida ifodalanishi hamda izohlab berilishi matn milliy ruhini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq, uning bu boradagi faoliyatiga tarjima nazariyasi jihatidan yondashilsa, she’riy misralarga aslyatda berilmagan so‘zlarning qo‘shilishi natijasida bo‘g‘inlar soni nomutanosib bo‘lib qolgani kuzatiladi. Bundan tarjimonning, avvalo, qo‘shiq mazmunini, so‘ngra qofiyani saqlab qolishga uringani seziladi. Nikoh to‘y marosimining ajralmas qismi sifatida hali-hanuz o‘tkazib kelinayotgan rituellardan biri – **nikoh o‘qitishdir**. Kelin va kuyovning nikohi **FXDYO** idoralarida qayd etilsa-da, ularni shar’iy nikohlab qo‘yish xalqimiz uchun odatiy holga aylanib qolgan, ammo xorijliklar bu marosimning o‘tkazilish tartibidan xabardor emas. Chunki ushbu marosim ko‘pincha yaqin kishilar doirasida o‘tkaziladi. Shuning uchun ham xorij tarjima manbalarida “*nikoh*” etnografizmining “*nikoh, niqakh, niqoh*” tarzida berilgani namoyon bo‘ladi: “*The wedding was always a grandiose event that had many symbolic meanings. As a norm and in order to highlight Islamic identity and values, most of the families invited Islamic clerics to perform the Islamic marriage ceremony (niqakh)*”. [24.223-225]

Umuman olganda, H.Vamberi, M.Pitersen, M.Lo, R.Abazov, D.Kandiyoti va N.Azimovalarning tadqiqotlarida nikoh to‘yi marosimi bilan bog‘liq “*sovchilik*” – “*sovchilik*”, “*to‘y*” – “*to‘y*”, “*to‘ylar*” – “*tois*”; “*qalin – kalym, kalim*”; “*kelin*” – “*kelin*”; “*nikoh*” – “*nikoh*”, “*niqak*”, “*niqoh*” singari etnografizmlarning transliteratsiya va transkripsiya qilinishi hamda ularga ingliz tilida tegishli izohlar berilgani hali-hanuz tadqiqotchilarning diqqat- e’tiborini tortmoqda.

O‘zbek nikoh to‘yida kuyov navkarlarning kelin uyiga tantanali kelishi va kutib olinishi, kelinning esa kuyov xonadonida shunday ko‘tarinki ruhda qarshi olinishi, “olov orqali poklanish” e’tiqodi asosida ularning gulxan atrofidan aylantirilishi, Kelin salom qilishi, shuningdek, “Kelin salom”, “Kuyov salom”, “Kelin o‘tirsin”, “Kuyov o‘tirsin” udumlarining amalga oshirilishi va “O‘lan kechasi” o‘tkazilishi o‘ziga xos an’ana tusini olgan holda asrlardan-asrlarga, avlodlardan avlodlarga o‘tib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xullas, o‘zbek nikoh to‘yi marosimi hamda nikohdan so‘ngi turli-tuman urf-odat va irim-sirimlarga boyligi bilan boshqa to‘y marosimlaridan alohida ajralib turadi. Bu bosqichda kelin va kuyov sha’niga qaratilgan alqovchi aytimlar aytish, chimildiq tutish, “kelin ko‘rdi”, “kelin salom” qilish singari udumlar amalga oshiriladi, o‘zbekning bunday milliy urf-odatlar va rasm-rusumlari borki, ular o‘zining betakrorligi bilan dunyoni lol qoldirib kelmoqda. Yana shunisi e’tiborliki, uning har bir bosqichi xalq tomonidan yaratilgan muayyan bir qo‘shiq turkumi bilan hamohanglikda o‘tadi. Masalan, kelinni kuyovnikiga olib borilishi uzvida yor-yorlar aytiladi, quda tomonidan tashrif buyurgan yigit va qizlar, yangalar ishtirokida lapar hamda o‘lanlar kuyuladi, kelinni kuyov yaqinlariga tanishtirish jarayonida kelin salomlar ijro qilinadi. E n g m u h i m i sh u n d a k i, b u n d a y o ‘ z i g a x o s b e t a k r o r a n ‘ a n a l a r i m i z n i z i y n a t l a g a n q o ‘ s h i q m a t n l a r i a d a b i y e t n o g r a f i k k o n t e k s t s i f a t i d a x o r i j l i k m u t a x a s s i s l a r n i, t a r j i m o n l a r n i, f o l k l o r s h u n o s v a e t n o g r a f (e t n o l o g) l a r n i o ‘ z i g a o h a n g r a b o k a b i t o r t i b, u l a r n i i l m i y j i h a t d a n o ‘ r g a n i s h g a, i j o d i y t a r j i m a l a r q i l i s h g a u n d a b k e l m o q d a.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Petersen M. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – T.: Qatortol- Kamolot, 2000. – 120 p.;
2. Petersen M. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – T.: Qatortol- Kamolot, 2000. – 121 p.; Petersen M. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – T.: Qatortol- Kamolot, 2000. - 120 p.
3. www.Pearson Longman Academic e-Tutor Longman Advanced American Dictionary P.81.5. O'zbek tilining izohli lug'ati.
4. jildli. 1-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 246.
5. www.CambridgeAdvancedLearners' Dictionary P.32.
6. Qoraboev U. O'zbek xalqi bayramlari. – B. 127.
7. Jabbarov I. O'zbek xalqi etnografiyasi – T.: O'qituvchi, 1994. – B. 219.
8. Louw M.E. Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia. – USA.: Routledge, 2007. – 208 p.; www.millifolklor.com The Lament Tradition Among The Uzbeks.P.76.
9. Louw M.E. Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia. – USA.: Routledge, 2007. – 208 p.; www.millifolklor.com The Lament Tradition Among The Uzbeks.75.
10. Newmark P. A Textbook of Translation. – Hertfordshire: Prentice Hall, 1988. – P.91.
11. Abazov R. Culture and Customs of the Central Asian Republics. – London: Greenwood Press. Westport, Connecticut. 2007. – 225 p.;
12. Newmark P. A Textbook of Translation. – Hertfordshire: Prentice Hall, 1988. – P.91.
13. Kandiyoti D. and Azimova N.(2004) The communal and the sacred: women's worlds of ritual in Uzbekistan, 16. Journal of the Royal Anthropological Institute. Vol.10, No.2 – rr.328.
14. Vambéry A. Sketches of Central Asia. Philadelphia: J. B. Lippincott & co.wm. H. Allen & co., 13, Waterloo Place, Pall mall, London.1868. – 98 r.;
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 5 - jild.– B.228.
16. Vambéry A. Sketches of Central Asia. Philadelphia: J. B. Lippincott & co.wm. H. Allen & co., 13, Waterloo Place, Pall mall, London.1868. – 98 r.;
17. Louw M.E. Everyday Islam in Post-Soviet Central Asia. – USA.: Routledge, 2007. – 208 p.; www.millifolklor.com The Lament Tradition Among The Uzbeks.P.142-243.